

MUQIMIYNING “TANOBCHILAR” SATIRASI: IJTIMOIY ADOLATSIZLIKKA HAJVIY NIGOH



Nabihev Nasimbek Shuhratjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotation: Ushbu maqolada Muqimiyning “Tanobchilar” satirasi tahlil qilinadi. Asarda XIX asr oxiridagi o‘zbek jamiyatida yer o‘lchash ishlari bilan shug‘ullanuvchi mansabdorlarning adolatsizlik va korrupsiya yo‘li bilan xalqni aldash usullari fosh etiladi. Shoир hajviy vositalar orqali mansabparastlik, firibgarlik va ijtimoiy tengsizlikni tanqid qiladi. Maqolada asarning badiiy xususiyatlari, asosiy g‘oyasi hamda uning bugungi kun uchun dolzarbliги yoritiladi. “Tanobchilar” satirasi nafaqat Muqimiyy ijodining yorqin namunasi, balki jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi adabiy isyon sifatida ham qadrlidir.

Kalit so‘zlar: Muqimiyy, “Tanobchilar”, hajv, satira, Sulton Ali Xo’ja, Hakimjon, adolatsizlik.

Kirish

Muqimiyning “Tanobchilar” hajviy asari XIX asr oxiridagi ijtimoiy va iqtisodiy adolatsizlikni fosh etuvchi satirik asarlardan biri hisoblanadi. Asarda amaldorlarning o‘z manfaatlarini ko‘zlab xalqni qanday aldashi, tanob tortish bahonasida oddiy dehqonlarning yeri va mol-mulkini tortib olishi qattiq tanqid qilinadi.

Asarning asosiy mavzusi:

Asarda tanobchilar deb atalgan soliq yig‘uvchilarning yovuz fe’l-atvori, ularning hiylasi va xalqning ularga ojizligi tasvirlanadi. Muqimiy o‘z boshidan kechirgan voqealar orqali bu muammoga real misollar keltiradi.

Tanobchilar kimlar?

Tanobchilar – yer o‘lchash va soliq yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi amaldorlar bo‘lib, ular yerkarni o‘z manfaatlariga moslab o‘lchashgan va odamlardan ortiqcha soliq undirganlar.

Asarning boshida Muqimiy taajjub bilan o‘z boshidan kechirgan voqealarni yozmoqchi ekanini aytadi:

“Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar, Arz etayin emdi yozib nomalar.”

Ya’ni, u boshidan o‘tgan adolatsizlik haqida yozishga kirishmoqda.

Asardagi qahramonlar va ularning obrazlari:

Sulton Ali Xo‘ja va Hakimjon

Asarda ikki asosiy obraz bor: Sulton Ali Xo‘ja va Hakimjon. Ular amaldor bo‘lib, o‘z manfaatlari uchun xalqni aldashadi. Ular orasidagi yaqinlikni Muqimiy hajviy yo‘sinda tasvirlaydi:

“Xo‘ja - chirog‘ yog‘i, Hakimjon - pilik.”

Bu misrada Xo‘ja yog‘, Hakimjon esa pilik (chiroqdagi pilik) deb tasvirlangan. Ya’ni, biri ikkinchisiz yashay olmaydi, ular bir-birini qo‘llab-quvvatlab turadi.

Ular shunchalik yaqinlashib ketganlarki,

“Erta-yu kech o‘pushib og‘iz-burun.”

Ularning til biriktirganini Muqimiy hajviy yo‘sinda tasvirlaydi va bu orqali amaldorlarning o‘zaro manfaatdorligini fosh qiladi.

Tanobchilarning xalqni aldagan usullari:

Tanobchilar o‘zlarini avliyo, buyuk zotlarning avlodlari sifatida ko‘rsatib, xalq orasida obro‘ orttirishga harakat qilishadi.

Hakimjon o‘zining qaysidir buyuk avliyolarga bog‘langanligini ta’kidlaydi:

“Maxtumi a’zamlik o‘zim xo‘jaman.”

“Bizga bobo hazrati Shohiq mazor, Muxlisimiz mardumi ahli diyor.”

Bu gaplar orqali u o‘zini yuksak darajadagi shaxs sifatida ko‘rsatib, xalqni o‘ziga itoat ettirishga harakat qiladi.

Haqiqiy hiyla va zulm:

Tanobchilar tanob tortishda o‘zlarining haqiqiy fe’l-atvorlarini namoyon qilishadi. Muqimiy ularning og‘izlaridan chiqadigan gaplarni istehzo bilan keltiradi:

“Qaysiki qishloqqa tushar otidin, Elni yig‘ib, voqif etar zotidin.”

Ya’ni, ular qaysi qishloqqa borsa, xalqni yig‘ib, o‘zining katta martabali ekanini gapirib, odamlarni qo‘rkitishadi.

Haqiqiy zulm esa tanob tortish jarayonida namoyon bo‘ladi:

“Ikki tanobini qilay o‘n tanob, Yurtingizi kuydurub aylay xarob.”

Bu misrada tanobchilarning allov usuli fosh qilinadi: ular yerlarni ortiqcha o‘lchab, odamlarning cho‘ntagidan ortiqcha soliq undirishadi.

Xalqning ojizligi va adolatsizlik:

Xalq bu zolimlardan qutulishning ilojini topa olmaydi. Tanobchilar qishloqqa kelganda odamlar nima qilishni bilmay qolishadi, ba’zilari ularga biror narsa berib, jo‘natishni maslahat qilishadi:

“Do‘g‘mag‘a, — der, — bir nima berib jo‘nat.”

Ya’ni, ularga pora berib qutulishdan boshqa chorasi yo‘q.

Tanobchilar esa hech narsadan uyalmay, hatto qariyalarning qo‘lidagi so‘nggi pullarni ham oladi:

“Aqcha qo‘lida ikki-uch mo‘ysafid, Derki: — «Bu nazringiz-u bizlar murid».”

Bu misrada xalqning qanday darajada ojizligi ko‘rsatilgan. Mo‘ysafidlar ham qo‘rqib, pullarini “nazr” deb berishga majbur bo‘ladi.

Muqimiylar tanobchilarning nafaqat mol-mulkni tortib olishini, balki ma’naviy zulm o‘tkazishini ham tanqid qiladi

Tanobchilar faqat moddiy boyliklarni emas, balki xalqning erkin fikrlashiga ham to‘sinqinlik qiladi. Masalan, Muqimiylar o‘ziga o‘quvchi qilib berilgan bolani “dardisar” deb ataydi:

“Bu dag‘i ortiqcha (menga dardisar)...”

Bu orqali u tanobchilarning nafaqat moliyaviy, balki ma’naviy bosim o‘tkazishini ham nazarda tutadi.

Muqimiylar xalqning ahvolini tasvirlar ekan, ularning ezilganligini kulgili, ammo achinarli shaklda beradi.

Xulasa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Muqimiylarning “Tanobchilar” satirasi XIX asrning oxirida O‘zbekistonda bo‘lgan ijtimoiy adolatsizlikni, amaldorlarning hiylalarini va xalqning ojizligini fosh etuvchi asardir.

Asarda Muqimiylar tanobchilarning o‘z manfaatlari uchun xalqni aldashini, soliq yig‘ishda hiylaga qo‘l urishini va o‘zlarini katta martabali qilib ko‘rsatishini keskin tanqid qiladi.

Bu asar faqat o'sha davr uchun emas, balki har qanday jamiyatda uchraydigan adolatsizliklarga qarshi bir o'ziga xos satirik isyon sifatida ham qabul qilinishi mumkin.

Muqimiyyning hajviy asarlari, ayniqsa "Tanobchilar", xalq orasida ommalashgan va bu kabi adolatsizliklarga qarshi kurashishda katta ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saylanma / Muqimiyy; Nashrga tayyorlovchi G'. Karimov. - T.: «Ma'naviyat», 2009.
- 96 b